

Munira Xatamova

(Toshkent, O'zbekiston)
khatamova.2014@yandex.ru

Shahar va manzilgohlarga doir ayrim turkiy atamalar xususida

Abstrakt

Maqolada turkiy xalqlarning muayyan qismi qadimgi va ilk o'rta asrlardanoq dehqonchilik, bog'dorchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanib, o'troq turmush tarzi kechirishgani, qolaversa, shaharchilik madaniyatiga ega bo'lishgani masalasi ko'rilgan. Eski turk tilida *baliq*, *kerman*, *tura*, *tow/ton*, *qoriyan*, *uluš* kabi "shahar", "manzilgoh", "qishloq", "qo'rg'on" ma'nolarini bildirgan sof turkiy atamalarning borligi eski turklarning o'z shaharlari bo'lganini ko'rsatuvchi eng ishonchli dalillardan biridir. Ushbu atamalarning ko'pchiligi "loy, tuproq" bilan bog'liq ekani turkiy xalqlarning doimiy (statsionar) va ko'chma (mobil) manzilgohlari bo'lganini bildiradi.

Kalit so'zlar: eski turklar, baliq, kerman, tura, "Devonu lug'otit turk", Turk xoqonligi, turk shaharlari, shaharchilik.

Some Turkish Terms about Cities and Settlements

Abstract

The article, a part of the Turkic peoples are considered in the era of antiquity and the early Middle Ages discusses the formation according to which, engaging in agriculture, gardening and various kinds of handicraft production, and also had its own rich urban culture. One of the most reliable proofs of the existence of cities the Turkish kaganate where ancient Turks lived and is the existence of the originally Turkish terms *baliq*, *Kerman*, *Tara*, *tow / ton*, *qoriyan*, *uluš*, denoting such concepts as "city", "settlement", "village", "fortress". Since most of the terms are related to "clay, land", this means that the ancient Turks had permanent (stationary) and nomadic (mobile) settlements.

Key words: ancient Turks, baliq, kerman, tura, "Divanu lughat at-turk", Turkish Kaganate, Turkish cities, urban culture.

Kirish

Turkiy xalqlar turmushini o'rganishda tarixiy tilshunoslik va onomastikaning alohida o'rni bor. Chunki har bir xalqning tili qandaydir davr oralig'ida birdaniga shakllanib qolmaganidek, bir vaqtning o'zida unutilib ham ketmaydi. Buning ustiga, biror xalqda dehqonchilik, bog'dorchilik, hunarmandchilik yoki shaharchilik madaniyati bo'lmasa, uni boshqa xalqdan o'rganadi va u bilan bog'liq atamalarni ham o'sha xalqning o'zidan to'liq o'zlashtiradi. Agar dehqonchilik, hunarmandchilik kabi mashg'ulotlar bilan mustaqil shug'ullanib kelgan bo'lsa, sohaga oid atamalar o'sha til muhitining o'zidan shakllana boradi.

Ayrim olimlar turkiy tillardagi shahar va qishloqni anglatuvchi barcha atamalar (mas., arabcha *qal'a*, forscha *shahar/shaar yoki kyoy/ko'y*, ruscha *kuorat/gorod*, mo'g'ulcha *ovul/aul* kabi)ning boshqa tillardan o'zlashganini uqtirishadi [Дмитриев 1962, 506]. Biroq bunda quyidagi bir qancha omillar ko'zda tutilmagan: 1) turkiy xalqlarning islom diniga o'tishi bilan ularning tiliga arab va fors tilining kuchli ta'siri; 2) turkiy xalqlarning ko'pchiligi eroniy xalqlar bilan yonma-yon yashab kelgani uchun ikki tillilik shakllangani; 3) keltirilgan atamalar faqat bugungi kunni ko'rsatib, o'tmishda eski turk tilida "shahar"ni anglatuvchi va shaharchilikka doir ko'plab sof atamalar bo'lgani, biroq ularning ko'pchiligi keyinchalik yangi o'zlashgan atamalar tufayli og'zaki tilda qo'llanilmay, arxaizmga aylangani [СИГТЯ 2006, 438; Кубатин 2010, 87]. Aslida faqat turk va uyg'ur bitiktoshlarining o'zida "turar joy", "shahar", "manzil", "qo'rg'on", "chodir" uchun *baliy*, *ulus*, *eb*, *barq*, *qaryu*, *karaku*, *qoryan*, *ordu*, *orgin*, *turyaq*, *čit*, *yurt* kabi atamalar saqlanib qolgan [User 2009, 240-243]. Quyida shu kabi shahar va manzilgohlarga oid atamalar yoritilgan yozma manbalar va lug'atlar tahlilga tortildi.

Umuman, turkiylarning shahar madaniyatini tilshunoslik nuqtayi nazaridan ochib berish anchadan beri olimlarni qiziqtirib keladi [Толстов 1947, 52-105; Köymen 1971, 1-14; Clauson 1972; Sinor 1981, 95-102; Esin 1983, 168-208]. Ayniqsa, turkiylarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalardagi terminologiyasining qiyosiy-tarixiy tahlili E. R. Tenishev boshchiligidagi Rossiyalik tilshunoslari tomonidan ochib berilgan [СИГТЯ 2001; 2006]. Shuningdek, sharqshunos Sh. S. Kamoliddin bir qator taddiqotlarida, xususan, "O'rta Osiyoning o'troq turklari madaniyati" nomli risolasida eski turk shaharchiligidagi oid so'z boyligini anchayin keng yoritib bergan [Камолиддин 2005, 354-373; 2006; 2007].

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asaridagi ayrim turk shaharlari

Qadimdan turk tilining boshqa qo'shni xalqlar tillaridagi lug'atlari yaratilib kelingan. Bunga turkcha-xitoycha lug'at (VII asr), Hakim at Termiziyning "Irshad at tolbin" (IX asr), Mahmud Zamashariyning "Muqaddimat al-adab" (XII asr) nomli arabcha-forschaturkcha lug'atlar, shuningdek, Abu Hayyonning "Kitab al-idrak lisian al-atrak", Ibn Muxanna lug'ati, Qipchoq tili lug'ati kabilarni kiritish mumkin. Ana shunday turkcha-arabcha lug'atlardan biri, ilk tarixiy tilshunoslik asoschilaridan bo'lmish Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" ("Turkiy so'zlar devoni") asaridir. Asar 1072–1074-yillar orasida arab tilida yozilib, 1075-yili Abbosiylar xalifasi Abulqosim Abdulloh bin Muhammad Muqtadoga sovg'a qilingan. Asarning bizgacha yetib kelgan birdan-bir nusxasi damashqlik kotib Muhammad binni Abu Bakr Abulfath tomonidan 1266-yilda ko'chirilgan bo'lib, hozirda Istanbul kutubxonasida saqlanadi.

"Devonu lug'otit turk" turkiy tillarning ilk qiyosiy grammatisasi, Koshg'ariy esa umumtilshunoslikda qiyosiy-tarixiy metodning asoschilaridan biri sanaladi. Qolaversa, o'z asariga dunyo xaritasini qo'shimcha qilgan muallif ko'plab geografik, etnografik qaydlarni ham yozib qoldirgani uchun asarga bo'lgan qiziqish bugungacha susaygani yo'q.

Mahmud Koshg'ariy "Devon"da ellikdan ortiq shahar nomlarini keltirgan. Shunisi qiziqki, tilshunos bitta shaharning bir necha xil nomlanishini bergen. Masalan, *Talas – Tiroz, Taroz, Ulug' Talas va Kemi Talas; Koshg'ar – O'rdu va O'rdu kand; Bolasog'un – Quz O'rdu va Quz Ulush*. Bu davrda bitta shaharni bir nechta tilda nomlash (to'g'rirog'i, asliga yaqinroq o'girish/kalka) udumi keng tarqalgan edi. Birgina *Saryam/Sayram* shahri to'g'risida Koshg'ariy "Sayram "Oq shahar" ham deb ataladigan, *Ispijob* deb ham ataladigan shahar nomi. Bu so'zning *Saryam* shakli ham bor", deb yozib qoldirgan bo'lsa, yana boshqa joyda muallif "Sayram – sayram suv – to'piqdan past oqadigan oz suv. Suv sayramlandi – suv ozaydi" [ДЛТ 1963, 223] deb tushuntirish bergen. Chindan-da, shahar nomi sug'dcha 'sp'yt – "oq", -c egalik suffiksi va "ph – "suv" so'zlaridan yasalgan bo'lib, turkiyicha *Saryam/Sayram* – "Siyrap suv" yoki "Oq suv" deb yuritilgan [Байтанаев 2003, 5-7; Lure 2004, 55, 147, 240 241]. Yoki Besh baliqning ahолиси ко'проқ туркиялар, sug'diyalar va xitoyliklar bo'lgani uchun shahar o'sha davrda uch tilda: turkcha *Besh baliq*, sug'dcha *Panchkat* va xitoycha *Beytin* deb nomlangan hamda uchalasi ham "Besh shahar" ma'nosini anglatgan. Xitoy rohibi Chjan Syuan-szan (618–630)

Beshbaliqdagi budda ibodatxonasini To'n yabg'u-xoqon qurdirgani uchun shahar *Kexan fu-tu chen* – “Xoqon-stupa shahri” nomi bilan yuritilganini eslatib o'tgan [Beal 1990, 42, 45; Yesin 1978, 120, 230, n. 10]. Tibet manbalarida esa *Shu-baliq* (tibet. Šu-ba-ba-leg) va *Baqir-baliq* (tibet. Ba-ker-pa-lig; so'zma-so'z: “Mis shahar”) shaharlari G'arbiy turk xoqonligining poytaxti deb ko'rsatilgan [Bacot 1956, 145]. K. Segledi Baqir baliq shahrini Sharqiy Turkistondagi *Besh baliq* bilan tenglashtirgan [Segledy 1960, 211-216]. *Shu-baliqni* Mahmud Koshg'ariy tilga olgan Bolasog'un yaqinidagi Shu qo'rg'oni bilan bir degan qarashlar bor. Uni turkcha Chubaliq, ya'ni “Chu (daryosi bo'yidagi) shahar” deb ham tiklasa bo'ladi.

O'z davrining ko'zga ko'ringan olimlari ham bu borada qiziq fikrlarni bildirishgan. Jumladan, Abu Rayhon Beruniy “*Samarqand - turkchasi esa Semizkend, ya'ni “semiz, bo'liq/unumdor” shahar ma'nosidadir*” degan bo'lsa [Беруни 1973, 576], Koshg'ariy ham “*Samarqandni kattaligi uchun Semizkend - semiz shahar deydlar. Buni forslar Samarqand tarzida qo'llaydilar*”, deb yozib qoldirgan [ДЛТ 1960, 330]. Shunga o'xshash *Beklik - Semekna - Bolasog*'un shahrining turk, sug'd, mo'g'ul tillarida *Besh baliq/Baqir baliq - Panjikent - Beytin/Kexan-fu-tu* esa turk, sug'd va xitoy tillarida yuritilgani ushbu shaharlар aholisining bir nechta tilli bo'lganini ko'rsatadi.

“Devon”da turkiy shaharlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq turli afsonalar ham keltirilgan. Ularda Iskandar Zulqarnayn, Siyovush, Shu xoqon, Afrosiyob va uning o'g'il-qizlari qurdirgan shaharlар to'g'risida so'z boradi. Xususan, Koshg'ariy *qatun* atamasini “Afrosiyob qizlaridan bo'lganlarning nomi” deb tushuntirib [ДЛТ 1960, 388], quyidagilarni yozadi: “*Qaz - Afrosiyob qizining nomi. Qazvin shahrini shu qurgandir. Bu so'zning asli Qaz o'yini - g'oz o'ynaladigan joy demakdir. Chunki u shu yerda turar va shu yerda o'ynar edi. Shuning uchun ba'zi turklar Qazvinni turk shaharlарidan hisoblaganlar. Shuningdek, Qum shahri ham chegara hisoblanadi. Chunki Qum turkcha so'zdir. Afrosiyobning qizi bu yerda ov qilar va o'ynar edi. Ba'zilar turk shaharlari chegarasi Marvash - Shohijondan boshlanishini so'zlaydilar... Qaz suvi - Ila vodiysiga quyadigan katta bir dengiz. Afrosiyobning qizi uning qirg'og'iga bir shahar qurgani va bu nom unga nisbat berilganidandir*” [ДЛТ 1963, 163, 165]. Umuman, Afrosiyob va uning o'g'il-qizlari Marv, Barjuq, Barsg'an, Barman, Qaz, Qazvin, Qum kabi shaharlarni qurdirgan bo'lib [ДЛТ 1963, 166, 379-380], ular ko'proq Ili vodiysini o'z ichiga olgan.

“Devonu lug’otit turk”da shaharchilik bilan bog’liq atamalar

Eski turk tilida *ordu* yoki *orda*, *toy*, *qoriyan*, *tura* yoki *turuy*, *qišlay*, *uluš* kabi “shahar”, “qishloq”, “qo’rg’on” va “yashirinadigan joy” ma’nolaridagi qator atamalar bo’lgan [Древнетюркский словарь 1969, 370, 448, 458, 572, 587, 588, 611; СИГТЯ 2001, 485-486, 494-495, 569; СИГТЯ 2006, 451-453, 459, 473]. Buni eski turk tilida shaharni bildirgan *baliq* va undan yasalgan *Toyu-baliq*, *Beş-baliq*, *Baj-baliq*, *Jan-baliq*, *Yan-baliq*, *Ordu-baliq*, *Xan-baliq*, *Xâtün-baliq*, *Baqır-baliq*, *Šū-baliq* kabi hamda Sharqiy Yevropa turklari foydalangan *kerman* atamasi va undan yasalgan *Man-kerman* (Kiyevning turkcha nomi), *Guz-kerman* singari shahar nomlari ham ko’rsatadi [Древнетюркский словарь 1969, 80; Clauson 1972, 335; СИГТЯ 2001, 485, 487; 2006, 443-450]. Hatto, turkiylarda “shahar boshqaruvchisi, shahar boshlig’i, hokimi” ma’nolarini anglatuvchi maxsus *baliqčy* (*belyičy~balýičy~baliqčy*) atamasi ham bo’lgan [Бас-каков 1985, 40]. Birgina “Devonu lug’otit turk” asarida keltirilgan turkiy xalq va qabilalarning tilida ishlatilgan turar-joy, shaharchilik va qurilish bilan bog’liq atamalarni quyidagicha bo’lish mumkin:

1. Uy-joy va binolar:

<i>äw</i>	uy	<i>toy</i>	askarlarning turar joyi, harbiy lager
<i>äw barq</i>	uy-joy, hovli joy	<i>xan toy</i>	xon, xoqon lageri
<i>tortigul äw</i>	to’rtburchak uy	<i>qišliq</i>	qishlik uy
<i>tär äw</i>	tor uy	<i>käbit</i>	ichkilik do’koni, mayxona
<i>ujuyluγ äw</i>	toqili uy	<i>taŋ</i>	baland joylarda saqlanib qolgan bino izlari, devor tagi, qo’rg’on belgisi
<i>käräkü</i>	turkmanlarda “chodir” va o’troqlarda “qishlik uy”	<i>yurt</i>	baland joylarda saqlanib qolgan bino izlari, devor tagi, qo’rg’on belgisi
<i>käräm</i>	yerto’la	<i>sub- uzyan</i>	ibodatxona
<i>čit</i>	poxol yoki tikanli shox-shabbadan qilingan chayla		
<i>satma</i>	daraxt ustiga tunda qoro-vullash uchun qilingan tokcha		

<i>qaryu / qaryūy</i>	dushman xavfidan saqlanish uchun baland yerga qurilgan minora shaklidagi bino		
<i>türüy</i>	tog'lardagi qal'a, turar joy		
<i>türüyliy yēr</i>	turar joy, turadigan yer		
<i>ordu</i>	o'rdu, xoqon saroyi		

1.1. Uy-joy qismlari, konstruksiyasi:

<i>ül</i>	devor va uylar poydevori	<i>tör, törä</i>	uy to'ri, to'r
<i>tām</i>	devor	<i>ěsik</i>	uy ostonasi
<i>arquq</i>	to'sin, sinch	<i>qapuγ</i>	eshik
<i>āwšük</i>	to'sin, sinch	<i>qapya</i>	darvoza
<i>oyilmuq</i>	to'sin, sinch	<i>sädräk</i>	eshik panjarasi
<i>oq</i>	to'sin, sinch	<i>yanyaq</i>	eshik tambasi
<i>suni</i>	to'sin, sinch	<i>bäčküm</i>	dahliz, vestibul
<i>basruq</i>	tirgak, ustun	<i>qalima</i>	to'rt ustunli ochiq shiypon
<i>qazjuq</i>	tirgak, ustun	<i>aşlıq</i>	oshxona
<i>čiz</i>	tirgak, ustun	<i>tawarluq</i>	omborxona, mol, mato turadigan joy
<i>āgmä</i>	ustun	<i>čomušluq</i>	hojatxona
<i>bayna</i>	zinapoya	<i>ükäklik tām</i>	burjli devor
<i>tüylük</i>	tuynuk, deraza	<i>qarim</i>	xandaq
<i>tarus</i>	shift	<i>beltir</i>	chorraha
<i>bečküm</i>	shift, naves	<i>oram</i>	mavze, ko'cha
<i>kütü</i>	tom	<i>bentaz</i>	bino
<i>āndäk</i>	tom	<i>barq</i>	bino
<i>örtmän</i>	tom	<i>seru</i>	uyda eshik ustiga qilinadigan raf, unga har xil buyumlar qo'yiladi
<i>tayam</i>	tom	<i>sekü</i>	do'kon, ustaxona
<i>čap</i>	chaplamoq		
<i>suwa</i>	suvamoq		
<i>ěl</i>	hovli, qo'ra		

1.2. Chodir va uning qismlari:

<i>alāču</i>	olachuq, katta chodir	<i>sapiy</i>	chodirning etak qismi
<i>āyāgu</i>	chodirning asosi, qovurg'asi	<i>siruq</i>	chodirning ustuni

<i>āw</i>	chodir, o'tog'	<i>čuvač</i>	guldor qimmatbaho chodir
<i>ariy</i>	chodirning ipak yoki jundan qilingan bog'ichi	<i>tolwir</i>	qubbali, shohona chodir
<i>čātir, čāčir</i>	chodir, o'tog'	<i>mindatu</i>	qubbali, shohona chodir
<i>otāy</i>	chodir, o'tog'	<i>bayiš</i>	o'tovning bog'ichi, arqoni
<i>kārækü</i>	chodir, o'tog'	<i>ejaku</i>	chodirning yon tomoni
<i>üγ</i>	o'tovning yuqorisidagi uvuqlari, yog'ochlari	<i>sezräk qapuγ</i>	panjarali eshik, surma eshik
<i>quršāy</i>	chodirning ipak yoki jundan qilingan bog'ichi		

2. Shahar, qishloq va manzilgohlar:

<i>baliq</i>	shahar	<i>ast</i>	ko'cha
<i>känd, kän</i>	shahar, qishloq	<i>kōk</i>	shahar cheti, tashqarisi
<i>uluš</i>	shahar, qishloq	<i>yēr</i>	yer, mamlakat, joy, shahar
<i>qišläy</i>	qishloq, qishlanadigan joy	<i>tāš</i>	boshqa, chet mamlakat
<i>ükäk</i>	minora, shahar devorida urush uchun tayyorlangan burjlar	<i>ēl</i>	viloyat, provinsiya

3. Qurilish xom-ashyosi va asboblari:

<i>baliq</i>	loy, balchiq	<i>siruqliq jiyač</i>	ustunlik yog'och
<i>tupraq</i>	tuproq	<i>ukaklig jiyač</i>	sandiqlik yog'och
<i>qum</i>	qum	<i>qobi</i>	quruq yog'och
<i>liju</i>	qum aralash loy	<i>uzunäk</i>	ganch
<i>titik</i>	loy	<i>aqtaš</i>	oqtosh, gips
<i>jiyač</i>	yog'och	<i>jartu</i>	payraha
<i>taš</i>	tosh	<i>kerki</i>	o'roq-randa; rus. kirka, turkiy tildan o'zlashma
<i>qamiš</i>	qamish	<i>sali</i>	andava
<i>saman</i>	somon	<i>turbiku</i>	randa
<i>kärpič</i>	g'isht; rus. kirpich turkiy tildan o'zlashma	<i>qundiyu</i>	silliqlash, pardozlash asbobi
<i>kärpič kipi</i>	g'isht qolipi	<i>čäkäk</i>	bolg'a, bugungi turk tilida čekič
<i>kip</i>	qolip	<i>qisyač</i>	qisg'ich, ombur
<i>siričya</i>	Shisha	<i>baldu, baltu</i>	bolta

<i>urunak</i>	canch	<i>basu</i>	to'qmoq
<i>sir</i>	sir, bo'yoq	<i>talyuq</i>	pona, mix
<i>boduy</i>	sir, bo'yoq	<i>kuryak</i>	kurak
<i>ešiklik jiyac</i>	eshiklik yog'och	<i>kuturku</i>	ko'targi, g'isht ko'taradigan asbob
<i>jap</i>	qolip, andaza	<i>sapliy</i>	soplik

To'g'ri, keltirilgan atamalarning ayrimlari boshqa tillardan o'zlashgan. Biroq ularning ko'pchiligi turkiy tilning o'zidan shakllanib, xalq orasida keng qo'llanilgan va hatto, boshqa tillarga ham o'tgan [turkiy tildan rus tiliga o'zlashgan so'zlar bo'yicha kengroq qarang: Мелиоранский 1905, 66-92; Menges 1979; Шипова 1976], u yoki bu ko'rinishda bugungacha saqlanib qolgan. Quyida faqat shahar va manzilgohlar bilan bog'liq *baliq*, *känd/kän*, *qoryan*, *tura*, *tou / ton*, *uluš* kabi atamalarga kengroq to'xtalinadi.

Eski turkcha *baliq* – “shahar”

Mahmud Koshg'ariy *baliq* atamasini shunday tushuntirgan: “Johiliya davridagi (islomgacha bo'lgan – M.X.) turklar va uyg'urlar tilida “shahar”. Uyg'urlarning eng katta shaharlariga *Beshbaliq* deyilishi shundan. Beshbaliq – “Besh shahar” demakdir. Uyg'urlar boshqa bir shaharlariga Yangibaliq – “Yangi shahar” deydilar” [ДЛТ 1960, 360]. “Yopishqoq tuproq, loy” ma'nosidagi *bal* so'zidan kelib chiqqan *baliq* atamasini turkiylarning birinchi o'rmonsiz ochiq yerlar – dashtlarda yashaganini bildiradi [Кызласов 2011, 33-35, 169-170]. S. P. Tolstov esa *baliqning bal/bar* – “oqmaydigan havza”, “balchiqli havza” so'zlaridan kelib chiqqani va bu turklarning eskidan baliqchilik bilan shug'ullanib, ko'l va balchiqli landshaft sharoitida o'troq yashaganini ko'rsatadi, deb talqin qilgan edi [Толстов 1947, 74]. Turk bitiktoshlarida ham *baliqdaqi taşıqmış...* – “shahardagilar toqqa [chiqishdi]...” jumlasida *baliq* “shahar” ma'nosida, ...*baliqqa basiqdī* – “balchiqqa botti” jumlasida esa “loy, balchiq” ma'nosida kelgan [User 2009, 226]. *Valiq* so'zi ham eroniy tillaridagi *kaθā* singari “tuproq” > “tuproq devor” > “tuproq devor bilan o'ralgan joy” = “shahar” shaklidagi semantik rivojlanishni bosib o'tgan [Севортян 1978, 59; Lure 2004, 108-109]. Bu qarashga qo'shilmagan ayrim tilshunoslar esa protooltoy tilida pialVgV va prototurkcha *bialik*, ikkisi ham “mustahkamlangan manzilgoh”ni bildirgan, protomo'g'ulcha *balagasun* – “shahar, qo'rg'on”, *protostratik *p'alGa* – “mustahkamlangan manzilgoh”ni anglatgan [Севортян 1978, 59]. Demak, *baliq* so'zining o'zagi *bal* qurilishda ishlatilgan

xom-ashyo – “*tuproq, balchiq, loy*” ma’nolaridan kelib chiqqan. Bu atama xazarlarda *baluq, baluy*, klassik mo’g’ul tilida esa *balyasun* deb yuritilgan [Толстов 1947, 72-74; Sinor 1981, 97].

Valiq atamasi Amudaryo – Sirdaryo oralig’ida ham tarqalgan, hatto, u Turk xoqonligigacha ham muomalada bo’lgan ko’rinadi. Xususan, eftalitlarning To’xoristonidagi boshqaruv markazlaridan biri Qunduz shahri arab manbalarida *Valvalij*, xitoy yilnomalarida *Axuan* (Avar) deb tilga olinib, olimlar uni *Avar-baliq* shaklida tiklashgan [Marquart 1901, 53-54, 68; Малявкин 1989, 241]. Ilk o’rta asrlarga oid sug’diy hujjatlaridagi *Almalyk* toponimi *Olmaliq* [СДГМ 1962, 101; Lure 2004, 192] yoki *Al baliq* (“Alvon shahar”), Chochdagи *Arbilax/Abrlig*’ shahri *Arpalig*’ (“Arpaga boy joy”) yoki *Ar baliq* (“Er, kishilar shahri”) tarzida tiklangan [Бабаяров, Кубатин 2016, 177]. Sharqiy Turkistonidagi *Kungut* (xit. Gun’yue), keyinroq *Olmaliq* (G’ulja) deb atalgan shahar *El-baliq* (“El shahri”) deb talqin qilinadi [Малявкин 1989, 99, 310]. Mo’g’ullar Pekin shahrini *Ilbaliq* (Il+baliq bo’lishi kerak) deb ham yuritishgani [İslâm Ansiklopedisi 1992, 12] tufayli yuqoridagi ikkala *Olmaliq* toponimi aslida “El baliq” bo’lgani haqida xulosa qilish mumkin. Tog’li Oltoyda o’tgan asrda ham *Yer baliq* va *Oy baliq* toponimlari qayd qilingan [Молчанова 1979, 181]. Bugungacha Toshkent vohasida *Olmaliq, Qorabaliq* (“Qora/Ulug’ shahar”), *Oqbaliq*, Farg’ona vodiysida *Bo’rbaliq* (*Bo’zbaliq?*) kabi joy nomlari bo’lib, bizningcha, ularning ilk qismi turkiy ranglar, keyingisi *baliq* – “shahar” bilan bog’liq bo’lishi kerak.

Ko’proq Sharqiy Turkiston, Mo’g’uliston hududlarida yoyilgan hamda bugungacha shu yerlarda saqlanib qolgan *baliq* atamasi O’rta Osiyo hududidan eroniy *känt* so’zining o’zlashmasi tufayli ancha ilgari siqib chiqarilgan [СИГТЯ 2006, 474]. Bugungi turkiy tillar orasida faqat sariq uyg’urlar tilidagina “(xom g’ishtdan qilingan) devor, shahar atrofi” ma’nosida *paluq/palıq* so’zi saqlanib qolgan [СИГТЯ 2006, 474, 451]. Aslida *baliq* atamasi qachondan o’z o’rnini *käntga* bo’shatib bergenini aniqlash qiyin va umuman, *baliq* va *känt* topoformantlarining tarqalish arealini o’rganishning o’zi alohida izlanishlarni talab qiladi. “Shahar”, “qishloq” ma’nolarini anglatgan sug’dcha *-keθ/-kath* topoformanti o’rganilayotgan davrda mintaqaga joy nomlari uchun sug’diy va turkiy aholi orasida birdek keng ishlataligan [Камолиддин 2007]. Xususan, Toshkent vohasi, Janubiy Qozog’iston va Yettisuvdagи joy nomlari ko’proq *känt* atamasi bilan yasalgani ushbu shahar va manzilgohlarga sug’d savdogarlarining asos solgani bilan bog’lanadi [Lure 2004, 88, 105, 208].

Arablar bosqinidan so’ng *-kaθ* topoformanti *-kanδ/-kent*

bilan almashgani aholining turkiylashishi, qisman forsiylashishi bilan bog'liq va bugungi Eronda unga turkiy so'z deb qaraladi [Lure 2004, 107, 110]. Shuning uchun, Koshg'ariy "kend – shahar. Bundan olinib, Koshg'arni O'rdukend – xon turadigan shahar, markaz ma'nosida qo'llanadi. Chunki bu shaharning havosi yaxshi bo'lgani uchun Afrosiyob shu yerda turar edi. U Quyi Chindir. ... Kun chiqar tomondagi har bir shaharga kän deydilar. Bu so'z kandning qisqarganidir. Kend – o'g'uzlar va ular bilan yaqin turuvchilar tilida qishloq. Ko'pchilik turklar nazdida viloyatdir" [ДЛТ 1960, 327, 329 330]. Bu davrga oid Inchkand, O'zkand, Biskand, Sutkand, Tunkand, Baykand (Poykand), O'rdukand, Yarkand, Mankand, Chigilkand kabi ko'pgina shaharlarning ilk qismi turkiy, keyingi qismi sug'diy yoki turkiylashgan *kent/kand/qand* topoformidan yasalgan.

Demak, turklar sug'diylardan *känt* so'zini olishgani bilan ularda "atrofi tuproq devor bilan o'ralgan har qanday shahar"ni bildirgan *baliq* atamasi ham yo'qolib ketmagan va Amudaryo – Sirdaryo oralig'ida *baliq* so'zidan yasalgan joy nomlari ham uchraydi. Shuningdek, ilk o'rta asrlarda bir vaqtning o'zida biror geografik joy nomi o'sha yerda yashagan etnoslarning turli-tumanligidan kelib chiqib, har xil atalgan yoki kalka qilingan. To'g'rirog'i, bunday joy nomlarining shakli va aytilishi o'zgargani bilan ma'nosi butunlay saqlanib qoladi [Мирзаев 1982, 121]. Masalan, sug'dcha *Shavg'ar*, turkcha *Qorachuq* "Qora tog"ni, turkcha *Sayram/Saryam*, sug'dcha *Isfijob* "Oq suv"ni, turkcha *Bing-yul*, xitoycha *Syan-syuan*, sug'dcha *Azar-xax* "Ming buloq"ni, turkcha *Besh baliq*, sug'dcha *Panjikent*, xitoycha *Beytin* "Besh shahar"ni anglatgan.

Ilk o'rta asrlarda xitoycha *chen/-chjen*, sug'dcha *kat/ kand*, pahlaviycha *shahr*, turkcha *baliq*, yunoncha *-polis* atamalari har qanday devor bilan o'ralgan shahar yoki manzilgoh, qishloqni bildirgan. Shuning uchun, o'sha davr yozma manbalari, xususan, turk bitiktoshlarida birorta shaharga qarata *baliq* atamasining qo'llanishi uning to'g'ridan to'g'ri turklarga tegishli ekanini bildirmaydi. Masalan, bitiktoshlarda *Shantun baliq* to'g'risida so'z borganida, Xitoydagи *Shandun* shahri ko'zda tutilgan. Bitiktoshni yozgan bitikchi o'sha davr turkiy muhitidan kelib chiqib, xuddi xitoycha *chen* yoki sug'dcha *kat* singari turkcha *baliq* so'zini o'z shaharlaridan boshqa har qanday shaharga qarata ham ishlatgan.

"Devon"da *ulus* atamasi chigilchada "qishloq"ni bildirgan, Bolasog'un va ularning yuqori yonidagi arg'ularcha "shahar" demakdir. Shuning uchun, Bolasog'unni *Quz ulush* ham dey-dilar, tarzida keltirilgan [ДЛТ 1960, 94]. Bu atama eski turk

bitiktoshlarida, eski uyg'ur yozuvlarida va Qoraxoniylar davri manbalari ("Qutadg'u bilig" va "Devonu lug'otit turk")da uchraydi. Aslida *ulus* atamasi "mamlakat", "davlat"ni anglatish bilan birga Turk xoqonligi davridanoq "shahar"ga qarata ham qo'llanilganini Kul tegin bitiktoshida *Buqaraq ulus* – "Buxoro shahri" tarzidagi jumla tasdiqlaydi [User 2009, 241]. Keyinroq bu so'z mo'g'ul tiliga o'tib, undan yana turkiy tillarga ma'muriy birlikni ifodalovchi ulus tarzida o'zlashgan [СИГТЯ 2006, 474].

Eski turkcha *qoryan*, *turuγ* / *tura*, *toy*, *čit* – "harbiy qarorgoh, qo'rg'on"

Xunlardan to mo'g'ullargacha bo'lgan Yevrosiyoning barcha davlatlarida chegara chiziqlarida mudofaa qo'rg'onlari bo'lgan [Худяков 1995, 67; Кызласов 2006, 117-140]. Markaziy Qozog'istondan topilgan shahar xarobasining mudofaa devorlari xom g'isht, chim va qamish bog'lamasidan qurilgan bo'lib, devor mustahkamligi uchun g'ishtning orasiga bo'yiga uzun qamishlar o'rami ham qo'yilgan. Manzilgoh ichida chorvadorlarning chodir uylarini tikishga mo'ljallangan ochiq maydon qoldirilgan [Margulan 1950, 46; Агаджанов 1969, 47]. Arkaim (Chelyabinsk), Shagonar-3 (Tuva), Mag'i qo'rg'on (Mo'g'uliston), Bo'zo'q (Ostona), Jabg'ukat (Toshkent) kabi bunday mudofaa inshootlarida madaniy qatlam kam yoki deyarli uchramaydi, ular faqat jang vaqtlarida zaxira ombori va mudofaa joylari vazifasini o'tagan [Худяков 1995, 67]. Odatda atrofi mustahkam devorlar bilan o'rالgan, bir nechta darvozadan iborat, markazida ark, uning atrofida esa qo'shining yurtalari joylashgan qo'rg'onlar harbiy maqsadlar uchun, urush vaqtida atrofdagi chorvadorlarning yashirinishi uchun hamda vaziyat talab qilganida ma'lum vaqt oliy hukmdorning qarorgohi uchun xizmat qilgan [Кызласов 1984, 145-147; Байпаков 1978, 89; Худяков 1995, 62-73].

Bunday harbiy qarorgohlar eski turk tilida *qoryan*, *turuγ* yoki *tura*, *toy*, *čit* kabi nomlarda yuritilgan [Древнетюркский словарь 1969, 92, 458, 587, 588]. Xususan, "qo'riqlamoq; (devor bilan) o'ramoq" ma'nosidagi *qori/qorya* yoki "tartibga keltirmoq" va "qurmoq, tiklamoq" ma'nosidagi *qur fe'liga yan/an* affiksining qo'shilishidan shakllangan *qoryan* atamasi "harbiy qarorgoh", "qo'rg'on" va "shahar"ni anglatgan [Древнетюркский словарь 1969, 458; СИГТЯ 2006, 504; Кызласов 2011, 35]. Bitiktoshlarda *Mayi qoryan* shaklida [Древнетюркский словарь 1969, 335], bugungacha esa *Oqqa'rg'on*, *Kattaqo'rg'on*, *To'raqo'rg'on* kabi joy nomlarida saqlanib qolgan.

Turuy – “tog’dagi yashirinadigan turar-joy, manzil” yoki *tura* – “mustahkam turar-joy, qo’rg’on”, “shahar”, “qishloq”ni anglatgan topoformantlar ham eski turklarda ko’p uchraydi [Древнетюркский словарь 1969, 587-588; Мурзаев 1982, 83; Дыбо 2007, 98; Мурзаков 1980, 296 301; СИГТЯ 2006, 452]. Jumladan, G’arbiy Sibirning barcha turkiy tilli xalqlari uchun “shahar” ma’nosidagi *tura* atamasi bugungi xakas tilida saqlanib qolgan. Bunga nomlari ruslashib ketgan aslida xakascha *Aba tura* (Kuznesk), *Tom tura* (Tomsk), *Xyzylčar tura* (Krasnoyarsk), *Ayrat tura* (1949-yilgacha Tog’li Oltoyning nomi) bir qator shaharlar misol bo’ladi [Кызласов 2006, 82; Субракова 2006, 51; СИГТЯ 2006, 452]. Olimlar Turor (O’tror), Turaq (Turax, Tirak) kabi shahar nomlarini *turuy/tura* bilan bog’lashadi [Камолиддин 2006, 65-66]. Lug’atlarda “manzilgoh”, “hukmdor qarorgohi” va “shahar” tarzida izohlangan *tou so’zi* ham xuddi *baliq* singari “loy, tuproq”dan kelib chiqib, “tuproq” va “qarorgoh; shahar”ni bildiruvchi semantik o’xhashlikka ega [Кызласов 2011, 34]. Koshg’ariy “harbiy lager” deb tushuntirib, *xon to’y* – “xoqonning lageri. O’g’uzlar buni bilishmaydi”, deb qo’shimcha qilgan. Yaqingacha Toshkent viloyatidagi To’ytepə tumani nomida turkiy *toy* topoformantini ko’rish mumkin edi.

Xulosa

Shunday qilib, eski turklarda dehqonchilik, bog’dorchilik va hunarmandchilik madaniyati bilan birga [Ögel 1978; Камолиддин 2016; 2016a] shaharchilik madaniyati ham bo’lganini boshqa manbalar qatori yuqoridagi ko’plab atamalar ham tasdiqlaydi. Bordiyu, turklar shahar qurishmaganida edi, shaharchilikka oid so’zlarni sug’diylar yoki xitoyliklardan olgan bo’lardi. To’g’ri, shaharchilik bilan bog’liq ayrim so’zlar (-kaθ/-kath)ni turklar sug’diylardan o’zlashtirgan, biroq Turk xoqonligida -kaθ so’zi “shahar”, “qishloq” ma’nosida *baliy*, *ordu*, *ulus* kabi sof turkcha topoformantlar bilan birga qo’llanilgan. Bu esa qoraxoniylar davridan oldin turkiy xalqlarning ushbu so’zlardan teng foydalanganini ko’rsatadi. Chunki Qoraxoniylar davri yozma manbalarida *baliy*, *ordu*, -kand/-kat, *ulus* atamalari bir vaqtning o’zida uchraydi. Xususan, Turfon matnlarida känt tegräki bodunuy ölürgäli alqıp muna amtı *baliq ičiňä kirgäli turur* tarzida berilgan bo’lsa, “Qutadg’u bilig”da *qayu kend, ulus, ordú, qarşulug, ordú, karşı, yer-e...* – “har bir shahar, mamlakat, poytaxt, saroy va joy” jumlesi tilga olingan [Древнетюркский словарь 1969, 586; Clauson 1972, 203].

Qisqasi, eski turklar “shahar” tushunchasi ostida o’z tillaridagi

baliq – “atrofi tuproq devor bilan o’ralgan shahar”ni tushunishgan. Bitiktoshlarda *Tog’u baliq*, *Shandun baliq*, *Besh baliq* tarzida va tibetcha manbada *paleg* (*baliq*) shaklida uchrashi uning xoqonlik davrida “shahar”ni anglatuvchi o’zgarmas tushuncha bo’lganini hamda turklar o’z shaharlaridan boshqa har qanday shaharga ham *baliq* atamasini qo’llashganini ko’rsatadi. Eski turk tilida *baliq*, *kerman*, *tura*, *tou/ton*, *qoriyan*, *ulus* kabi “shahar”, “manzilgoh”, “qishloq”, “qo’rg’on” ma’nolarini bildirgan sof turkiy atamalarning borligi turklarning o’z shaharlari bo’lganini ko’rsatuvchi eng ishonchli dalillardan biridir. Ushbu atamalarning ko’pchiligi “loy, tuproq” bilan bog’liq ekani turkiy xalqlarda eskidan doimiy va ko’chma manzilgohlar bo’lganini bildiradi. Yuqorida ko’rib o’tilgan shaharchilik bilan bog’liq sof turkiy atamalar, yozma manbalar va arxeologik materiallardagi ma’lumotlar asosida jahon fanida ustuvor bo’lib kelayotgan turkiy xalqlarning eskidan ko’chmanchi chorvador bo’lgani va faqat Qoraxoniylar davriga kelib o’troqlasha boshlagani to’g’risidagi xulosalarning bir yoqlama ekanini ko’rsatadi.

Adabiyotlar

- Агаджанов, А. Г. 1969. *Очерки истории огузов и туркмен Средней Азии IX – XIII вв.* Ашхабад.
- Бабаяров, Г., Кубатин А. 2016. «Древнетюркские топонимы Чачского (Ташкентского оазиса)». *Историко-культурное наследие и современная культура*, 168–182. Астана.
- Байпаков, К. М. 1978. «Городище типа «Торткуль». *Археологические памятники Казахстана*, 80–96. Алма Ата.
- Байтанаев, Б. 2003. *Древний Испиджаб*. Шымкент–Алматы.
- Баскаков, Н. А. 1985. *Тюркская лексика в «Слове в полку Игореве»*. Москва.
- Беруни, Абу Райхан. 1973. *Канон Мас’уда*. Избранные произведение, V. Часть первая. Перевод и примечания Б.А. Розенфельда и А. Ахмедова, Ташкент.
- Bacot, J. 1956. “Reconnaissance en Haute Asie septentrionale par cinq envoyes ouigours au VIIe siècle”. *Journal Asiatique* 137–153. Paris. T. CCXLIV. P
- Beal, S. 1990. *The life of Hiuan Tsiang*. New Delhi.
- Дмитриев, Н. К. 1962. *Строй тюркских языков*. Москва.
- Древнетюркский словарь. 1969. Под ред. В.М. Наделяева, Д.М. Насилова, Э.Р. Тенишева, А.М. Щербака. Ленинград.
- Дыбо, А. В. 2007. *Лингвистические контакты ранних тюрков: лексический фонд: пратюркский период*. Москва.
- Esin, E. 1978. *İslamiyetten önceki Türk kültür târîhi ve İslâma Giriş*. Istanbul.
- Esin, E. 1983. “Baliq and ordu”. *Central Asiatic Journal* 27: 168–208. Wiesbaden.
- İslâm Ansiklopedisi. 1992. Cilt 5. İstanbul.
- Clauson, G. 1972. *Etymological dictionary of pre-Thirteenth century Turkish*. Oxford.

- Czegledy, K. A. 1960. "Rezvaros [Copper City]". *Antik Tanulmanyok* 7: 211–216.
- Камолиддин, Ш. С. 2005. «О градостроительной культуре у древних тюрок». *Урбанизация иnomадизм в Центральной Евразии: истории и проблемы. Материалы международной конференции*, 354–373. Алматы.
- Камолиддин, Ш. С. 2006. *Древнетюркская топонимия Средней Азии*. Ташкент.
- Камолиддин, Ш. С. 2007. *Құлтұра оседлых тюроков Средней Азии*. Ташкент. // http://www.eurasica.ru/articles/uzbecks/shskamoliddin_kultura_osedlyh_tyurkov_sredney_azii.
- Камолиддин, Ш. С. 2016. *Земледелие и садоводство у древних тюрков*. Saarbrücken.
- Камолиддин, Ш. С. 2016 а. *Металлургия и ремесленное производство у древних тюрков*. В 2-х томах. Ташкент.
- Кубатин, А. 2010. «Градостроительная терминология у древних тюрок». *Үрта Осиёнинг қадимги ва ўрта асрлар шаҳар маданияти анъаналари*. ЎзМУ Археология кафедраси 70 йиллигига бағишиланган илмий анжуман материаллари, 87–89. Тошкент.
- Кызласов, И. Л. 2011. *Алтаистика и археология*. Москва.
- Кызласов, Л. Р. 1984. *История Южной Сибири в средние века*. Москва.
- Кызласов, Л. Р. 2006. *Городская цивилизация Срединной и Северной Азии*. Москва.
- Кашгари, Махмуд. 2005. *Диван лугат ат-турк*. Пер. А.М. Ауэзовой, индексы Р. Эрмерса. Алматы.
- Кошғарий, Маҳмуд. 1960. *Түркій сўзлар девони* (ДЛТ – Девону луғатит турк). Таржимон ва нашрға тайёрловчи С.М. Муталлибов. 1 том. Тошкент.
- Кошғарий, Маҳмуд. 1963. *Түркій сўзлар девони* (ДЛТ – Девону луғотит-турк). Таржимон ва нашрға тайёрловчи С.М. Муталлибов. 3 том. Тошкент.
- Köymen, M.A. 1971. "Alp Arslan Zamani Türk Evi". *Selçuklu Araştırmaları Dergisi* 3: 1–14.
- Лурье, П. Б. 2004. *Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии*: Дисс. ... канд. фил. наук. Санкт-Петербург.
- Маявкин, А. Г. 1989. *Танские хроники о государствах Центральной Азии*. Новосибирск.
- Маргулан, А. Х. 1950. *Из истории городов и строительного искусства древнего Казахстана*. Алма-Ата.
- Marquart, J. 1901. *Erānšahr nach der Geographie des Ps. Moses Xorenac'i*. Berlin.
- Мелиоранский, П. М. 1905. «Заимствованные восточные слова в русской письменности домонгольского времени». *ИОРЯС*, 66 92. Т.Х. Кн. 4.
- Менгес, К. Г. 1979. *Восточные элементы в «Слове о полку Игореве»*. Ленинград.
- Молчанова, О. М. 1979. *Топонимический словарь Горного Алтая*. Горно Алтайск.
- Мурзаев, Э. М. 1980. «Избранная тюркская географическая лексика». *Ономастика Востока*, 72–88. Москва.
- Мурзаев, Э. 1982. *География в названиях*. Москва.
- Севортян, Э. В. 1978. *Этимологический словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на букву «Б»*. Москва.
- Севортян, Э. В. 1980. *Этимологический словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на «Г», «Д»*. Москва.

Shahar va manzilgohlarga doir ayrim turkiy atamalar xususida

- СДГМ – *Сегодняшние документы с горы Муг. Чтение, Перевод. Комментарий.*
1962. Вып. II. Юридические документы и письма. Чтение, перевод и
комментарии В.А. Лившица. Москва.
- СИГТЯ – *Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков.
Лексика.* 2001. Т. IV. Москва.
- СИГТЯ – *Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков.
Пратюркский язык основа.* 2006. Т.VI. Москва.
- Субракова, О. В. 2006. *Хакасско русский словарь.* Новосибирск.
- Толстов, С. П. 1947. “Города гузов”. *Советская этнография* 3: 52–105. Москва.
- Худяков, Ю. С. 1995. «Древние и средневековые фортификационные
сооружения в Южной Сибири и Центральной Азии». *Военное дело
и средневековая археология Центральной Азии*, 62–73. Кемерово.
- Шипова, Е. Н. 1976. *Словарь тюркизмов в русском языке.* Алма Ата.
- Ögel, B. 1978. *Türk Kültür Tarihine Giriş.* Cilt II. Türklerde Ziraat Kültürü. Göktürklerden Osmanlılara. Ankara.
- Sinor, D. 1981. “The origin of Turkic Balıq “town”. *Central Asiatic Journal* 25:
95–102. Wiesbaden.
- User, Ş. H. 2009. *Köktürk ve Ötüken Uygur Kağanlığı Yazıtları.* Söz Varlığı İnceleme. 1. Baskı. Konya.

References

- Agadzhanyan, A. G. 1969. *Ocherki istorii oguzov i turkmen Srednej Azii IX – XIII vv.*
Ashhabad.
- Babajarov, G., Kubatin A. 2016. «Drevnetjurkskie toponimy Chachskogo (Tashkentskogo oazisa)». *Istoriko-kul'turnoe nasledie i sovremennojaj kul'tura*,
168–182. Astana.
- Bajpakov, K. M. 1978. «Gorodishhe tipa «Tortkul». *Arheologicheskie pamjatniki
Kazahstana.* 80–96. Alma Ata.
- Bajtanaev, B. 2003. *Drevnj Ispidzhab.* Shymkent–Almaty.
- Baskakov, N. A. 1985. *Tjurkskaja leksika v «Slove v polku Igoreve».* Moskva.
- Beruni, Abu Rajhan. 1973. *Kanon Mas'uda.* Izbrannye proizvedenie, V. Chast' per-
- vaja. Perevod i primechanija B.A. Rozenfel'da i A. Ahmedova, Tashkent.
- Bacot, J. 1956. “Reconnaissance en Haute Asie septentrionale par cinq envoyes
ouigours au VIIe siècle”. *Journal Asiatique* 137–153. Paris. T. CCXLIV. P
- Beal, S. 1990. *The life of Hiuan Tsiang.* New Delhi.
- Dmitriev, N. K. 1962. *Stroj tjurkskikh jazykov.* Moskva.
- Drevnetjurkskij slovar'.* 1969. Pod red. V.M. Nadeljaeva, D.M. Nasilova, J.R. Tenisheva, A.M. Shherbaka. Leningrad.
- Dybo, A. V. 2007. *Lingvisticheskie kontakty rannih tjurkov: leksicheskij fond: pratjurkskij period.* Moskva.
- Esin, E. 1978. İslamiyetten önceki Türk kültür târîhi ve İslâma Giriş. İstanbul.
- Esin, E. 1983. “Balıq and ordú”. *Central Asiatic Journal* 27: 168–208. Wiesbaden.
- İslâm Ansiklopedisi.* 1992. Silt 5. İstanbul.
- Clauson, G. 1972. *Etymological dictionary of pre-Thirteenth century Turkish.*
Oxford.
- Czegledy, K. A. 1960. “Rezvaros [Copper City]”. *Antik Tanulmanyok* 7: 211–216.
- Kamoliddin, Sh. S. 2005. «O gradostroitel'noj kul'ture u drevnih tjurok».

- Urbanizacija i nomadizm v Central'noj Evrazii: istorii i problemy.*
Materialy mezhdunarodnoj konferencii, 354–373. Almaty.
- Kamoliddin, Sh. S. 2006. *Drevnetjurkskaja toponimija Srednej Azii*. Tashkent.
- Kamoliddin, Sh.S. 2007. *Kul'tura osedlyh tjurkov Srednej Azii*. Tashkent. // http://www.eurasica.ru/articles/uzbecks/shskamoliddin_kultura_osedlyh_tyurkov_sredney_azii.
- Kamoliddin, Sh. S. 2016. *Zemledelie i sadovodstvo u drevnih tjurkov*. Saarbrücken.
- Kamoliddin, Sh. S. 2016. *Metallurgija i remeslennoe proizvodstvo u drevnih tjurkov*. V 2-h tomah. Tashkent.
- Kubatin, A. 2010. «Gradostroitel'naja terminologija u drevnih tjurok». *Urta Osijoning qadimgi va urta asrlar shahar madanijati ananalari*. UzMU Arheologija kafedrasi 70-jilligiga bagishlangan ilmij anzhuman materiallari, 87–89. Toshkent.
- Kyzlasov, I. L. 2011. *Altaistika i arheologija*. Moskva.
- Kyzlasov, L. R. 1984. *Istorija Juzhnoj Sibiri v srednie veka*. Moskva.
- Kyzlasov, L. R. 2006. *Gorodskaja civilizacija Sredinnoj i Severnoj Azii*. Moskva.
- Kashgari, Mahmud. 2005. *Divan lugat at-turk*. Per. A.M. Aujezovoj, indeksy R. Jermersa. Almaty.
- Koshgarij, Mahmud. 1960. *Turkij suzlar devoni* (DLT – Devonu lugatit turk). Tarzhimon va nashrga tajjorlovchi S. M. Mutallibov. 1 tom. Toshkent.
- Koshgarij, Mahmud. 1963. *Turkij suzlar devoni* (DLT – Devonu lugotit-turk). Tarzhimon va nashrga tajjorlovchi S.M. Mutallibov. 3 tom. Toshkent.
- Köymen, M.A. 1971. "Alp Arslan Zamani Türk Evi". *Selçuklu Araştırmaları Dergisi* 3: 1–14.
- Lur'e, P. B. 2004. *Istoriko-lingvisticheskij analiz sogdijskoj toponimii*: Diss. ... kand. fil. nauk. Sankt-Peterburg.
- Maljavkin, A. G. 1989. *Tanskie hroniki o gosudarstvah Central'noj Azii*. Novosibirsk.
- Margulan, A. H. 1950. *Iz istorii gorodov i stroitel'nogo iskusstva drevnego Kazahstanu*. Alma-Ata.
- Marquart, J. 1901. *Ērānšahr nach der Geographie des Ps. Moses Xorenac'i*. Berlin.
- Melioranskij, P. M. 1905. «Zaimstvovannye vostochnye slova v russkoj pis'mennosti domongol'skogo vremeni». *IORJAS*, 66 92. T.H. Kn. 4.
- Menges, K. G. 1979. *Vostochnye jelementy v «Slove o polku Igoreve»*. Leningrad.
- Molchanova, O. M. 1979. *Toponimicheskij slovar' Gornogo Altaja*. Gorno Altajsk.
- Murzaev, J. M. 1980. «Izbrannaja tjurkskaja geograficheskaja leksika». *Onomastika Vostoka*, 72–88. Moskva.
- Murzaev, J. 1982. *Geografija v nazvanijah*. Moskva.
- Sevortjan, J. V. 1978. *Jetimologicheskij slovar' tjurkskikh jazykov. Obshhetjurkskie i mezhtjurkskie osnovy na bukvu «B»*. Moskva.
- Sevortjan, J. V. 1980. *Jetimologicheskij slovar' tjurkskikh jazykov. Obshhetjurkskie i mezhtjurkskie osnovy na «G», «D»*. Moskva.
- SDGM – Sogdijskie dokumenty s gory Mug. Chtenie, Perevod. Kommentarij*. 1962. Vyp. II. Juridicheskie dokumenty i pis'ma. Chtenie, perevod i kommentarii V.A. Livshica. Moskva.
- SIGTJa – Sravnitel'no-istoricheskaja grammatika tjurkskikh jazykov. Leksika*. 2001. T. IV. Moskva.
- SIGTJa – Sravnitel'no-istoricheskaja grammatika tjurkskikh jazykov. Pratjurkskij jazyk osnova*. 2006. T.VI. Moskva.

- Subrakova, O. V. 2006. *Hakassko russkij slovar'*. Novosibirsk.
- Tolstov, S. P. 1947. "Goroda guzov". *Sovetskaja jetnografija* 3: 52–105. Moskva.
- Hudjakov, J. S. 1995. «Drevnie i srednevekovye fortifikacionnye sooruzhenija v Juzhnoj Sibiri i Central'noj Azii». *Voennoe delo i srednevekovaja arheologija Central'noj Azii*, 62–73. Kemerovo.
- Shipova, E. N. 1976. *Slovar' tjurkizmov v russkom jazyke*. Alma Ata.
- Ögel, V. 1978. *Türk Kültür Tarihine Giriş*. Cilt II. Türklerde Ziraat Kültürü. Göktürklerden Osmanlılara. Ankara.
- Sinor, D. 1981. "The origin of Turkic Balıq "town". *Central Asiatic Journal* 25: 95–102. Wiesbaden.
- User, Ş. H. 2009. *Köktürk ve Ötüken Uygur Kağanlığı Yazıtları*. Söz Varlığı İncelemesi. 1. Baskı. Konya.

Muallif haqida: Xatamova Munira Matkayumovna – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim, O'zR FA Milliy arxeologiya markazi.

Iqtibos uchun: Xatamova, M. M. 2020. "Shahar va manzilgohlarga doir ayrim turkiy atamalar xususida". *O'zbekiston: til va madaniyat* 1: 75–91.

About the author: Munira M. Khatamova – Doctor of Philosophy (PhD) Historical Sciences, Senior Researcher, National Archaeology Center of Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan.

For citation: Khatamova, M. M. 2020. "Some old Turkish Terms about Cities and Settlements". *Uzbekistan: Language and Culture* 1: 75–91.